

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: SAMARQAND VILOYATINING SALOHIIYATI	8-11
--	------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayarova Zuhra, Turayev Baxtiyor</i> HUDUDDA ASALARICHILIK FAOLIYATINING UY XO'JALIKLARI DAROMADLARIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	12-22
<i>Dr. Abror Kucharov, Dr. Jyoti Meshram</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF INDIAN INVESTMENT IN CENTRAL ASIA AND ITS RELEVANCE FOR UZBEKISTAN	23-32
<i>Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TAYANCH HUDUDI: FARG'ONA VILOYATI VA UNING IQTISODIY TARMOQLARI	33-37

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIIY POTENSIALI	38-43
--	-------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> TIBBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	44-49
<i>Naimova Parvina Rustamovna</i> O'ZBEK TILIDA HAYVON OBRAZLARINING FRAZELOGIZMLARDA VA MAQOLLARDA INSON XARAKTERI VA XULQINI IFODA ETISHI	50-54
<i>Tashxujayeva Nigora Madaminjanovna</i> FRAZELOGIK BIRLIKLARDA MIFOLOGEMALARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI	55-58

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Zokirov Sherzod</i> MAHALLIIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI QONUNIYLIGI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	59-65
<i>Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna</i> YER SERVITUTINI RIVOJLANISHI	66-70
<i>Uzbekova Dilshoda Tulkinovna</i> ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	71-80

<i>Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li</i> KIBERKORRUPSION JINOYATLAR BO'YICHA AYRIM ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR	81-87
<i>Adizov Alibek Oybek o'g'li</i> ZARARNING TO'LIQ QOPLANISHI MUNOSABATI BILAN JINOYAT ISHLARINI SUDGACHA TUGATISH: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR	88-94
<i>Xoligova Gavhar Ramazon qizi</i> CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY HUQUQIY JIHATLARI	95-99
<i>Низомова Настарин Владимировна</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА	100-107
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>To'raeva Gulchiroy Sheralievna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	108-114
<i>Xodjayev Anvar Zakirovich</i> OG'IR ATLETIKADA DAST KO'TARISH MASHQINI BAJARISHGA O'RGATISH USLUBIYATI	115-125

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES**Received:** 31 August 2025**Accepted:** 15 September 2025**Published:** 30 September 2025*Article / Original Paper***THE EDUCATIONAL POTENTIAL OF BEAUTY IN SUFI AESTHETICS****Tursunkulova Shakhnoza Tuychiyevna**

Alfraganus University

Professor, Department of Social Sciences

Abstract. The article comprehensively highlights the artistic and aesthetic aspects of Sufi teaching and reveals its influence on the human psyche and spiritual development. In particular, the views on beauty expressed in the works of Ahmad Yassawi, Alisher Navoi, and Jalaluddin Rumi are analyzed, with their aesthetic and educational essence consistently interpreted. The divine and spiritual sources of beauty, its role in purifying the human heart, shaping moral virtues, and cultivating free thinking are especially emphasized. Furthermore, the article outlines the unique features of education through the influence of beauty, its meaning in Sufi philosophy, and its continuing relevance today from an analytical perspective.

Keywords: sufism, philosophical worldview, aesthetics, beauty, morality, spirituality, thinking, aesthetic education.

TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIY POTENSIALI**Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna**

Alfraganus universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi professor v.b.,

Email: shaxnozaxon058@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tasavvuf ta'limotining badiiy-estetik jihatlari keng yoritilib, uning inson ruhiyatiga va ma'naviy kamolotiga ta'siri ochib beriladi. Xususan, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy kabi allomalarning asarlarida ifodalangan go'zallik haqidagi qarashlar tahlil qilinib, ularning estetik va tarbiyaviy mohiyati izchil sharhlanadi. Go'zallikning ilohiy va ma'naviy manbalari, uning inson qalbini poklash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish va erkin tafakkurni tarbiyalashdagi o'rni alohida ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, maqolada go'zallik ta'sirida tarbiyalashning o'ziga xos tomonlari, uning tasavvuf falsafasidagi ma'nosi va bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyati tahliliy yondashuv asosida ifodalangan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, falsafiy dunyoqarash, estetika, go'zallik, axloq, ma'naviyat, tafakkur, estetik tarbiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI8Y2025N05>

Kirish. Estetik tarbiya xususida bugun zamonaviy olimlar ko'plab izlanishlar olib bormoqdaki, bu holat estetik tarbiyani chuqur o'rganishning dolzarbligi va ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Estetik tarbiyaga zaruriyat hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyoti va uyali aloqa vositalari imkoniyatlarining kengayib borishi sababli ancha kuchaymoqda. Yoshlar ayniqsa, internet va uyali aloqa vositalarining keng foydalanuvchisi sifatida ko'p vaqtini (foydali, foydasiz) ular bilan muloqotga sarflamoqda.

Virtual muloqot, axborot uzatish yoki qabul qilish, ulardan turli maqsadlarda foydalanish jarayonida birlamchi ma'noda san'at bilan to'qnashadi. Shu ma'noda insonning

estetik ehtiyoji juda kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Ushbu maqolada estetik tarbiyaning tasavvuf ta'limotidagi mohiyatiga e'tibor berildi, birinchidan, tasavvuf allomalar shoir va ijodkor bo'lishgani ma'lum, ikkinchidan, ular insonni go'zal bo'lishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni asarlarida bayon etgan. Insonni go'zal va xunuk yo'lga boshlaydigan ikki tomonlama xususiyatni badiiy vositalar yordamida ochib tashlaydi.

Tasavvuf estetikasiga ma'naviy inqirozga qarshi kurash, axloqiy tarbiya, qalbni poklash, to'g'ri va halol yashash, tabiatni, insonni, butun olamni sevisish va uni qadrlashning naqadar go'zalligi xosdir. Bugun zamonaviy tarbiyada biz yoshlarga qanday tarbiya berish vositalari va usullarini izlashimizda ajdodlarimiz izlanishlariga, ularning purma'no fikrlariga quloq tutishimiz juda muhimdir.

Estetik tarbiya, go'zallik masalasi olimlar tomonidan u yoki bu ma'noda o'rganilgan, jumladan, estetika va go'zallik falsafasi (T.Maxmudov, G.Mahmudova, A.Sher, O.G'aybullayev, B.Xusanov.) faylasuflar tomonidan ham chuqur o'rganilgan, ilmiy izlanishlar olib borilgan, ammo tasavvuf ta'limotida go'zallik masalasi borasida unchalik jiddiy izlanishlar olib borilmagani ma'lum. Biz ilmiy izlanishlarimizda tasavvufda go'zallik masalasining tarbiyaviy tomonlariga e'tiborimizni qaratdik, ammo shunday bo'lishiga qaramasdan tasavvuf allomalarining estetik qarashlari, go'zallik konsepsiyalari ustida yana ko'plab mavzularda izlanishlar olib borish zaruriyati mavjud.

Tasavvuf estetikasida go'zallikning tarbiyaviy potensialini ochib berish ushbu ishning dolzarbligini bildirib, go'zallik nuqtai nazaridan tarbiya berish imkoniyatlari qadim tarixiy davrlardan hozirgi davrlargacha o'zining funksiyalarini tobora muhimligini isbotlab kelmoqda. Insonning estetik ehtiyoji tabiiy instinkt kabi ijtimoiy hayotda muhim ta'sir kuchiga ega.

Metodologiya. Mazkur ishda tasavvuf allomalari merosi va ularning inson ma'naviyatiga oid qarashlarini har tomonlama yoritish uchun klassik hamda zamonaviy falsafiy yondashuvlar uyg'unlashtirildi. **Tarixiy-falsafiy tahlil** metodiga ko'ra, tasavvuf mutafakkirlarining g'oyalari ularning tarixiy davri va ijtimoiy-madaniy muhiti bilan bog'liq holda o'rganildi. Ushbu usul yordamida o'rta asrlarda shakllangan axloqiy-ma'naviy konsepsiyalarning kelib chiqishi va evolyutsiyasi aniqlab berildi. **Qiyosiy-falsafiy yondashuvga asosan**, o'rta asr tasavvuf allomalari qarashlari hozirgi zamon falsafiy va ma'naviy muammolar bilan taqqoslab tahlil qilindi. Bu orqali g'oyalarning davomiyligi, ularning bugungi sharoitda qay tarzda yangicha talqin qilinishi mumkinligi ochib berildi. **Kontent-tahlilga ko'ra**, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy kabi allomalar asarlaridagi go'zallikni asoslovchi asosiy tushunchalar tizimli tahlil qilindi. "Ruh", "qalb", "axloq", "komillik", "jamiyat", "tabiat" kabi kategoriyalar semantik maydon asosida ko'rib chiqilib, ularning falsafiy-ijtimoiy mazmuni yoritildi. **Ijtimoiy-madaniy yondashuv asnosida**, tasavvuf allomalari qarashlarining jamiyat hayoti va ma'naviy muhitdagi ahamiyati, xususan, ularning ijtimoiy-ma'naviy sog'lomlashtirish jarayonlariga ta'siri o'rganildi. Shu orqali ularning zamonaviy tarbiya jarayoniga qo'shilishi mumkin bo'lgan jihatlari asoslab berildi.

Natijalar. Tasavvufdagi go'zallik insonni nafaqat estetik zavqqa olib boradi, balki uni komillikka yetaklaydigan tarbiyaviy kuchdir. Tasavvuf ta'limotida go'zallik (*jamol*) tushunchasi ilohiy haqiqat bilan uzviy bog'langan bo'lib, u nafaqat estetik zavq manbai, balki inson tarbiyasining kuchli vositasi sifatida talqin etiladi. So'fiy mutafakkirlar nazarida go'zallik moddiy olamdagi tashqi chiroy emas, balki inson ruhiyati, axloqi va qalb pokligining ifodasidir. Shu boisdan ham tasavvufda "go'zal xulq" komillikning eng muhim belgisi sifatida e'tirof etiladi.

Go'zallikning tarbiyaviy kuchi, avvalo, uning inson qalbiga bevosita ta'sir ko'rsatish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Go'zal bir so'z, samimiy tilak yoki ruhni to'ldiruvchi asar inson ongida ijobiy kechinmalar uyg'otadi, qalbni yumshatadi, ruhiyatni yuksaltiradi. Masalan, so'fiylar she'riyatida "go'zal so'z" ilohiy nur bilan barobar ko'riladi: u insonni yovuzlikdan qaytaradi, ezgulikka chorlaydi va qalbdan mehr-muhabbat uyg'otadi. Shu jihatdan, go'zallik tarbiya jarayonida insonni nafsiy mayllardan poklash, uni ruhiy jihatdan kamolot sari yo'naltirishning eng ta'sirchan vositasiga aylanadi.

Tasavvufda go'zallik insonni jamiyatdan ajratmaydi, aksincha uni boshqalar bilan hamjihatlikda yashashga undaydi. Chunki go'zal so'z va go'zal amal orqali tarbiya topgan inson boshqalarga mehribon, atrof-muhitga e'tiborli, jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllanadi. Rumiy ta'biri bilan aytganda, go'zallik – insonni Allohga olib boruvchi ko'prikdir. Bu ko'priklar orqali inson o'z qalbini poklaydi, atrofida qilaydigan nur sochadi va jamiyatda axloqiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tasavvufda yaratilgan go'zal asarlar – masnaviylar, hikmatlar, qasida va g'azallar ham o'zining tarbiyaviy kuchi bilan ajralib turadi. Ular nafaqat estetik zavq uyg'otadi, balki insonning ruhiy olamini boyitadi, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Masalan, Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i, Navoiyning g'azallari yoki Rumiy masnaviylari insonni chin insoniylikka, samimiylikka va bag'rikenglikka da'vat qiladi. Go'zal so'zning bunday ta'siri tasavvufda "qalb tarbiyasi"ning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Jumladan, Ahmad Yassaviyning go'zallik haqidagi qarashlari uchta qismga bo'linadi: birinchisi, ilohiy go'zallik, ikkinchisi, ma'naviy (qalb, dil) go'zallik, uchinchisi, axloqiy go'zallikdir.

Masalan, quyidagi baytlarda Ahmad Yassaviy go'zallikni ifodalaganmi? Go'zallikning mohiyati nimada? Qanday tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi mumkin?

"Xush har Hayyu Subhon, xush qudrat, xush ilhon,
Jannat ichinda Rizvon, bir bog'bon emasmu?
Oshiq murodi dilbar, zohidni mayli minbar,
Jomi xurramni istar, Haq lomakon emasmu?"[1.44]

Bu baytlarda Yassaviyning ilohiy go'zallikka oshuhtaligi ifodalanganini ko'ramiz. U Allohning hayoti ("Hayyu"), qudrati va ilhomini "xush" deb ta'riflagan. "Xush" so'zi go'zallik, mukammallik va ulug'vorlikni anglatadi. "Jannat ichinda Rizvon" esa jannatning bog'boni sifatida tasvirlangan, bu ramziy tarzda berilgan ta'rif abadiy go'zallik manzarasini beradi. Yassaviy borliqni Allohning jamoli sifatida ta'riflaydi. Jannat, bog', Rizvon tushunchalari esa barchasi ilohiy go'zallikning timsollaridir. Oshiqning asosiy maqsadi yagonadir, u ham bo'lsa Allohning go'zalligiga yetishmoqdir. Bu go'zallikka yetishmoq uchun asarda juda ko'p tarbiyaviy hikmatlar, pand-nasihatlar ifodalanadi.

Misralarda aks etgan ma'no inson qalbida go'zallikka mehr uyg'otadi. Lekin bu go'zallik tashqi emas, balki ilohiy va ruhiy mohiyatga egadir. Hikmatlar insonni Allohning go'zalligiga yetishishga chorlaydi, zohid esa faqat tashqi ibodat bilan kifoyalanadi. Bu orqali Yassaviy insonni riyo va tashqi shakllardan voz kechib, haqiqiy poklik va samimiyatga da'vat qiladi. Go'zallik insonni o'zini anglash, foni narsalardan kechish va abadiy qadriyatlarga yuzlanishga chorlaydi. Bu jihat "go'zallik tarbiyasi"ning eng muhim mazmuni hisoblanadi.

Yassaviyning qarashlarida haqiqiy go'zallik Allohning "jamol" (go'zal) va "jalol" (buyuk) xususiyatlarining mavjudligida, go'zallik tarbiyasi esa insonning qalbini poklab, Allohga intilishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, Yassaviyning hikmatlari kishiga estetik zavq

bag'ishlash bilan birga, insonni ichki go'zallikka, samimiyat va diyonatga chorlaydi, insonning qalbini poklaydi, turli nopok ishlarga qo'l o'rmaslikka, to'g'ri va halol yashashga chaqiradi.

Alisher Navoiy ham go'zallikning tarbiyaviy imkoniyatlari haqida ko'p g'azallarida yozgan, go'zallikning haqiqatlari, go'zallikning o'tkinchiligi-yu, go'zallikning ulug'vorligi, uning immanent jihatlari, qonunlari, falsafasi, axloqiy kuchi va boshqa serqirrali mohiyati haqida juda chiroyli, mazmunli va boy ma'naviyatga to'la fikrlarini asarlariga singdirib kelajak avlod uchun katta meros qoldirgan. Allomaning "Farxod va Shirin", "Layli va Majnun", "Lisonut tayr", "Xazoyin ul nabois" va boshqa asarlarida go'zallik masalasi eng dolzarb mavzulardan hisoblanadi.[2] U yaratgan go'zallik obrazlari o'ziga xos bir olamni tashkil etib, go'zallikning falsafiy kuchi va mazmuni insonni o'ziga ajabtovur tarzda sehrlab qo'yadi. Masalan quyidagi misralarga e'tibor qaratamiz:

Gulag sahar vaqti berur jilva bog',
Kechga yetushsang, terar o'g'lon ushog'
Guruhiki, xar yil olursen xiroj,
Sotibsen alarga biror eski toj. [3.29.]

Mazkur baytda gulning ertalab ochilib jilvalanishi va kechga borib qurib, o'g'lon tomonidan terilishi tasvirlanmoqda. Asl mohiyatida falsafiy tomonlarini tahlil qilsak ancha boshqa tomonlar bilan bog'liklari ochiladi. Jumladan, go'zallikning foniyligi, ya'ni vaqt bilan bog'liq holda o'tkinchi bo'lishi ifodalanmoqda. Yana jamiyatdagi adolatsizlik, hukmdorlarning xalqdan soliq yig'ib, ularga eski tojdek arzimasi narsani qaytarishi tanqid qilinmoqda. Aytish mumkinki, Navoiy xazratlari tabiat go'zalligi orqali hayotning foniyligini, jamiyat go'zalligi orqali esa adolatning buzilishi oqibatlarini ko'rsatib beradi.

Ma'lumki, gul va bog' tasviri doim go'zallikning bevosita ramzi bo'lib kelgan. Ammo bu go'zallik vaqtinchalik bo'lib, insonni hayotning o'tkinchiligi haqida o'ylashga undaydi. Boshqa tomondan, insonning adolatli bo'lishi, boshqalarga ziyon yetkazmasligi go'zallikning yuksak shaklidir. Navoiy adolatsizlikni tanqid qilish orqali ma'naviy go'zallikning qadrini oshiradi. Navoiyning go'zallik haqidagi qarashlari sirlidir, uning qalb tug'yonlari, har bir narsa va hodisalardagi go'zal va xunuk jihatlarni ko'ra olishi nafosat olamining boyligini, nozikligini ko'rsatadi, ulug'vorlik va tubanlikka xos har bir so'z va jumalari uzoq tarix va zamonaviy dunyoning falsafiy masalalarining umumiyligini, dolzarbligini ko'rsatadi. Insonni uzoq utmish va zamonaviy hayotning chambarchas bog'liqligi to'g'risida mantiqiy fikrlashga chorlaydi. Demak, go'zallik va ayniqsa tasavvufiy go'zallik insonni fikrlashga, go'zallikdan ta'sirlanishga va tarbiya topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asarida inson hayotining to'rt davriga xos go'zalliklarini bayon etishini albatta har bir kishi o'qib chiqsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz. [4.584.]

Aytish mumkinki, "islom dinidan oziqlangan tasavvuf ilmi ko'p funksional xususiyatga egadir. U islom dinidagi transsendent, diniy va axloqiy g'oyalarini, qonun va qoidalarini keng yoyilishiga, ya'ni islomiy an'ana va aqidalarni mustahkamlanishiga, insonlar o'rtasida diniy tasavvurlarning, tajribalarning yangilanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shuningdek, tasavvufiy asarlarning ko'pchiligi badiiy ijod mahsuli bo'lgan badiiy asarlar bo'lib, uni idrok etuvchi kishilarda estetik tuyg'ularni keltirib chiqaradi, estetik tuyg'ular diniy kechinmalar bilan ta'sirlashib, estetiklikni ham chuqurlashtiradi. Bundan tashqari, asarlardagi badiiylikning yuksakligi, estetikasining kuchliligi, gohida diniy qarashlarni ikkinchi o'ringa tushirib quyadi. Buni qator misollar bilan izohlash ham mumkin." [5.263.]

“Tasavvuf she’riyatida, hikmatlarda, qissa va yirik badiiy asarlarda “go’zallik va xunuklik”, “ulug’vorlik va tubanlik” bir-biri bilan solishtirilib, baholanib ifodalanadi. Go’zal insonlar, go’zal onlar, go’zal ismlar, go’zal odatlar, go’zal hislar, go’zal majlislar va boshqa ko’plab go’zallik obyektlari ifodalanganki, mazkur ta’riflar insonni zavqqa va tafakkur qilishga undab kelmoqda.” [5.261.]

Tasavvuf ma’naviyat bulog’i, ustoz Najmiddin Komilov ta’biri bilan aytganda, Xizr chashmasidir. Undan qanchalik qonib ichgan inson shunchalik ma’naviy yuksaladi. [6.267.]

Muhokama. Go’zallik masalasi Sharq tafakkurida nafaqat estetik, balki chuqur ma’naviy va falsafiy mazmunga ega bo’lgan hodisa sifatida talqin qilinadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida go’zallik, avvalo, **ilohiy haqiqatning jilvasi** sifatida qaraladi. Uning nazarida tashqi go’zallik vaqtinchalik va foniy bo’lsa, **ruhiy va ma’naviy go’zallik** insonni Haqqa yaqinlashtiruvchi abadiy qadriyatdir. Shu jihatdan Yassaviy go’zallikni axloqiy tarbiya bilan bog’lab, uni nafsni tiyuvchi, qalbni poklovchi kuch sifatida talqin qiladi.

Alisher Navoiy esa go’zallikni yanada murakkabroq, ijtimoiy va axloqiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Uning nazmiy merosida go’zallik shaxsiy did yoki estetik zavq manbaidan tashqari, balki **adolat, ezigulik, muhabbat va komillikni targ’ib etuvchi ijtimoiy-estetik hodisa** sifatida namoyon bo’ladi. Navoiy go’zallikni inson ruhining komillikka intilishi, jamiyatning axloqiy uyg’onishi bilan bevosita bog’laydi. Shu bois uning qarashlarida go’zallik ma’naviy barkamollikning yo’li va vositasi sifatida talqin etiladi. [7.318-322]

Tasavvuf ta’limotida go’zallik konsepsiyasi yana ham keng falsafiy qamrovga ega. Tasavvufiy nuqtai nazarda, butun borliq Allohning “jamol” sifatining tajallisi bo’lib, har bir mavjudotda go’zallikning ilohiy nuri mujassamdir. Bu qarash go’zallikni nafaqat san’at va adabiyot, balki **ontologik va kosmik tushuncha** darajasiga ko’taradi. Shuning uchun tasavvuf ta’limotidagi “go’zallik” tushunchasi insonni o’zligini anglash, yaratuvchi bilan ruhiy aloqa o’rnatishning muhim yo’li sifatida talqin qilinadi.

Shunday qilib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va tasavvuf ta’limotidagi qarashlar bir-birini to’ldirib, go’zallikni **ruhiy kamolot, axloqiy tarbiya va ijtimoiy uyg’onishning asosiy vositasi** sifatida ko’rsatadi. Yassaviy hikmatlarida go’zallik ilohiy haqiqatga eltuvchi vosita bo’lsa, Navoiy ijodida u jamiyatni yangilashga chorlovchi estetik qadriyat sifatida talqin qilinadi. Tasavvufda esa go’zallik inson va borliqning yaratuvchi bilan uzviy bog’liqligini anglash darajasiga ko’tariladi.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot oqimi davrida go’zallik tushunchasi ko’pincha tashqi qiyofa, moda yoki iste’mol qadriyatlari bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa inson ruhiyatida bo’shliq va ma’naviy inqiroz keltirib chiqarishi mumkin. Yassaviy va Navoiy merosi hamda tasavvuf falsafasidagi go’zallik talqinlari zamonaviy jamiyat uchun shuni ko’rsatadiki, **haqiqiy go’zallik ma’naviylik, axloq, ezigulik va ichki uyg’unlikdadir.**

Yoshlar ongiga singdirilishi kerak bo’lgan asosiy tarbiyaviy potensial shuki, tashqi go’zallik vaqtinchalik bo’lsa, ichki go’zallik insonni jamiyatda munosib o’rin topishiga, to’g’ri qaror qabul qilishiga, ma’naviy komillikka erishishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda, Yassaviy hikmatlari va Navoiy she’riyati umuman olganda ajdodlarimiz yaratgan durdona va mumtoz asarlar bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarda estetik did, axloqiy mas’uliyat va milliy g’ururni shakllantirishda bebaho manbadir.

Xulosa qilib aytganda, tasavvufdagi go’zallik konsepsiyasi ekologik, axloqiy va ijtimoiy muammolarni hal etishda ham dolzarbdir. Chunki u tabiat va insonni yagona mavjudlik sifatida

ko'rib, ularning uyg'unligini ta'kidlaydi. Bu g'oya bugungi kunning **barqaror taraqqiyot konsepsiyasi** bilan hamohang bo'lib, kelajak avlod uchun ham falsafiy saboqdir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Hoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). – Toshkent.: Movoraunnahr. 2004. – 44 b.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг «Фан» нашриёти, - Тошкент.: 1992.
3. Alisher Navoiy. Hikmatlar. To'plovchi va so'zboshi muallifi S.Mutallibov. T., G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. – 88 b.
4. Alisher Navoiy [Matn]: nasr/to'plovchi Mirzo Kenjabek. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 584 b.
5. Турсункулова Ш. Тасаввуфий гўзалликнинг эстетик онгни шакллантириш масаласи. "Ўзбекистон фалсафа тарихи мактаби ва учинчи ренессанс" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. 2022 йил 17 май. – Тошкент. – 347 б.
6. Исақова З.Р. Ўзбекистон фалсафа тарихи ривожда Нажмиддин Комилов тасаввуфшунослик мактабининг ўрни ва издошлик анъаналари. "Ўзбекистон фалсафа тарихи мактаби ва учинчи ренессанс" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. 2022 йил 17 май. – Тошкент. – Б.268.
7. Турсункулова Ш. Т. (2022). Алишер Навои о красоте человека. ISJ Theoretical & Applied Science, 08 (112), 318-322. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-08-112-31> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2022.08.112.31>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).